

Mavzu: Matnning turlari (loyiha ishi)

Aa Toshkent vokzalidan
poyezd jōnab ketdi.

vokzal

LUG'AT




Temiryo'llar paydo bo'lishi bilan vokzallar ham paydo bo'la boshlagan.

Vokzal so'zi dastlab ommaviy sayilgoh (madaniy hordiq chiqarish joyi)ni anglatgan. Odamlar bu yerga parovozlarni tomosha qilish va hordiq chiqarish uchun kelishgan.



Loyiha ustida ishlash bosqichlarini ko'rib chiqing.

Loyiha ustida ishlash bosqichlari



**1-mashq. O'qing. Savollarga javob bering.**

Kings-Kross vokzali Londonning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Undan tashqari shaharda yana 13 ta temiryo'l stansiyasi mavjud (eng yiriklari – Paddington, Viktoriya, Vaterloo, Sent-Pankras, Liverpul).

Kings-Kross binosi Jon Ternbull va Lyuis Kabitt tomonidan loyihalashtirilgan. Vokzal 1852-yilda qurilgan. Binoning markaziy qismi o'zaro bog'langan ikkita ulkan gumbazsimon ravoqdan iborat bo'lib, ularning ostida temiryo'l relslari joylashgan. Ochilgan vaqtida *Kings-Kross* shaharning eng yirik transport markazi hisoblangan. XX asrdayoq yo'lovchilar oqimi bir necha baravar ortgani sababli vokzalga yangi platformalar va temiryo'l relslari qo'shilgan.

Kings-Kross nafaqat o'zining noyob me'morchiligi, balki Londonning diqqatga sazovor maskani sifatida ham mashhur. Har yili minglab sayyohlar bu yerga afsonaviy $9\frac{3}{4}$ platformasi yonida suratga tushish uchun oshiqishadi – ushbu platforma *Joan Roulingning Garri Potter haqidagi kitoblar turkumida* tasvirlangan. Shuningdek, bu yerda film tasvirga olish ishlari ham bo'lib o'tgan, shundan so'ng vokzalda alohida *chamadonlar va boyqush qafasi orilgan yuk aravachasi* – badiiy kompozitsiya tayyorlangan.

Kings-Kross kutish zali, kassalar, chipta xarid qilish terminal-lari, ma'lumotnoma xizmati, yuk saqlash xonalari va bankomatlar bilan birga telefon, dush, do'konlar hamda kafelarga ega ulkan vokzal hamdir.



1. *Kings-Kross* vokzali qayerda joylashgan?
2. Londonda nechta temiryo'l stansiyasi bor?
3. Vokzal binosini kim loyihalashtirgan?
4. *Kings-Kross* vokzali ochilganidan buyon necha yil o'tdi?
5. Nima uchun sayyohlar bu yerga oshiqishadi?



2-mashq. O'z shahringizdagi vokzallar haqida nimalarni ayta olasiz? Vokzallar qanday maqsadda quriladi? Vokzalda o'zni tutish qoidalari haqida so'zlab bering.



3-mashq. Guruhlarga bo'linib, topshiriqni bajaring. Loyiha ustida ishlash bosqichlaridan foydalanib, shahringizdagi vokzal haqida matn tuzing.

1-guruh. Hikoya matni.

Uyimizdan unchalik uzoq bo'lmagan joyda vokzal joylashgan. Bir kuni...

Tayanch so'zlar: keldik, sayr qildik, go'zalligidan bahramand bo'ldik, kelgusidagi sayohat quvonchini his qildik.

2-guruh. Tasviri matn.

Uyimizdan unchalik uzoq bo'lmagan joyda vokzal maydoni joylashgan. Bu...

Tayanch so'zlar: chiroyli, ozoda, gavjum, obod.

3-guruh. Mulohaza matni.

Uyimizdan unchalik uzoq bo'lmagan joyda vokzal joylashgan. Nima uchun vokzal aynan shu yerda joylashgan? Chunki...

Tayanch so'zlar: aynan shu yerdan respublikamiz turli hududlari va chegaradosh davlatlariga eltuvchi temiryo'llar o'tgan.



4-mashq. Hayvonlar haqida tasviri matn yozing. Tuzgan matningizga sarlavha qo'ying.

